

ISLOM SHARIATIDA QARZ OLDI-BERDI MASALALARI

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs magistranti
Botirov Muhammad Abdulmajid o'g'li*

Anatatsiya: Islomda o'zaro yordam va birovning haqiga e'tibor.

Kalit so'zlar: Qarz, ribo, faqih, fiqh, taboqot.

Hayot chorrahalarida kishining moddiy holati doimo bir xil davom etavermaydi. Gohida uning qo'li xohlagan joyiga yetsa, gohida esa bir chaqa uchun boshi qotadi. Mana shunday holatlarda do'st-yaqinlaridan yordam sifatida qarz havola qilib o'zining holatini yaxshilashi tabiiy xoldir. Dinimizdagi ko'p hukm va ko'rsatmalar insonlarni bir-biriga o'zaro yordam qilishi, moddiy va ma'naviy ko'maklashishiga qaratilgan. Bu hukmlarni ba'zisi majburiy (zakot, ushr, fitr sadaqa va boshqalar kabi) tarzda, ba'zisi ixtiyoriy tarzda namoyon bo'ladi. Mana shunday ixtiyoriy, lekin savobi ulug' bo'lgan o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatish turlaridan biri zarur bo'lib qolgan kishilarga qarz berib turishdir. O'zaro yordamni bu turi Qur'oni karim, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflari va ulamolarning ijmolari bilan shariatda joriy qilingan. Birinchidan, begona, nomahram erkak va ayol o'rtasida bunday ko'rinishdagi o'zaro munosabatlar o'rnatish, agar ularda oila qurish, nikohlanish maqsadi bo'lmasa, Islomda shak-shubhasiz man qilingan. Alloh Taolo Qur'oni karimda mo'mina ayollar haqida shunday deydi:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ham bu borada juda ko'p hadisi shariflar vorid bo'lgan. Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam : "Isro kechasi jannat eshigi ustiga: "sadaqaga o'n barobar, qarzga o'n sakkiz barobar savob berilur", deb yozilganini ko'rib, Jabroilga: "qarz sadaqadan muncha ham yuqorilab ketmasa?", dedim. U aytdi: "Chunki, so'rovchi (gohida) o'zida bo'la turib so'raydi, qarz oluvchi esa, hojati borligi uchungina qarz so'raydi", dedilar¹. Yana boshqa bir hadisda Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi Nabiy sollallohu alayhi vasallam: " Qaysi bir musulmon boshqa musulmonga ikki marta qarz beradigan bo'lsa bir bora sadaqa qilgan kabi bo'ladi²", dedilar. Barcha musulmonlar insonlarni qarzga hojatlari borligi va u orqali bir-birlariga yaxshi, savobli ishlarda o'zaro yordam berishlik borligi uchun uni joiz ekanligiga ijmo' qilganlar³. Demak dinimizda qarz berib turish orqali yordam qilishga targ'iblar ko'p. Darhaqiqat, bugungi kunda yuqorida o'tgan savoblarga erishish maqsadida va insonlarni bu muomala turiga ehtiyoji yuqori bo'lganligi uchun

¹ Ibni moja va Bayhaqiy rivoyati.

² Ibni Moja va Ibni Hibbon rivoyati

³ Doktor Vahba az-Zuhayliy. Al-muamalat al-maliyya al-muasira. – Damashq: Dar al-fikr. 2002. – b.80.

kishilar o'rtasida ko'p uchrayotgan muomala turlaridan biri, shubhasiz bu – qarz oldi-berdi masalasidir. O'z navbatida tortishuvlar, ko'ngilxonliklar va sen-u-menlarga borishlarga ham shu sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Mana shunday noxush holatlarga borib qolmaslik uchun nima qilmoq kerak?, shariatimizda bu muomalaning yo'l-yo'riqlari qanday? Bu borada quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Avvalo, qarz berib turish yuqorida aytib o'tganimizdek Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarda targ'ib qilingan, kishilarga foyda berish, hojatini chiqarish va qiyinchiligini ketkazish bo'lganligi uchun savobli va oddiy holatlarda ixtiyoriy amal bo'lib, gohida qarz so'rovchining sharoitiga qarab vojib, muboh, makruh va hatto harom bo'lishi ham mumkin, chunki “bir ishga olib boradigan sabablar o'sha ish hukmidadir”, degan fiqhiy qoida bor. Shunga ko'ra agar qarz so'rovchi moddiy jihatdan o'ta tang holatda bo'lsa imkoni bor kishiga qarz berib turib bo'lsa ham yordam qilishi vojib (lozim) bo'ladi, yoki aksincha qarzdor u pullarni gunoh va makruh ishlarga sarflashi ma'lum bo'lsa unday holatlarda qarz berib turishlik harom, yoki makruh bo'ladi. Shuningdek, tijoratchi hojati uchun emas, balki tijoratini ziyoda qilish uchun qarz so'rasa qarz berib turish muboh (oddiy ish) bo'ladi, chunki bu o'rinda shariat talabiga ko'ra bir qiyinchilikni ketkazish sodir bo'lmayapti⁴.

“Qarz berish orqali yordam qilish qarz oluvchi musulmonmi, musulmon emasmi baribir savobli ishdir. Chunki insonlarga qilinadigan yaxshilik musulmonlarning o'zigagina bo'lsin degan joyi yo'q. Bizning ustimizda zimmiylarni himoya qilish va ulardan nochor bo'lib qolganlarining taomlaridan xabar olish lozimdir⁵.”

Berayotgan qarzidan maqsadini to'g'ri qilishi lozim. Chunki qarz oldi-berdisi shariat nuqtai-nazariga ko'ra ixtiyoriy yordam ko'rsatish uchungina joriy qilingandir. Shu bilan birga shariatda harom qilingan eng katta gunohlardan biri bo'lmish riboga yo'l ochib qo'yishi mumkin bo'lgan muomala turidir. Shuning uchun nihoyatda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Mana shu ehtiyotkorlikka undab Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Agar sizlardan biringiz qarz bersa, so'ng unga (qarzdor tomonidan) hadya berilsa, yoki hayvoniga mindirsa, uni minmasin va (hadyani) qabul qilmasin, magar o'rtalarida oldindan shu ishlar bo'lib yurgan bo'lsa mayli”, dedilar⁶. O'z zamonasida parhezkorlarni (shubhali narsalardan tiyiluvchilar) peshvosi Abu Hanifa rahimahulloh bu borada ham benazir bo'ldilar. Haqlarini so'rab qarzdorlarini uyiga keldilar. Kun juda qizigan vaqt edi, hovli devorini soyasi bo'la turib u tarafidan foyda bo'lib qolmasin deb quyosh tig'ida turdilar. U ham aksiga olib ancha vaqtda chiqib keldi..!⁷ U zotning bu ishlari yuzaki qaraganda dinda chuqur ketishga o'xshasada, lekin

⁴ Quvayt vaqf va Islomiy ishlar vazirligi. “Mavsu'atul Fiqhiyya”. 33-juz. 113.b.

⁵ Shibromlisiy. Hoshiyati Shibromlisiy. Al-maktaba –ash-shamila

⁶ Ibni Moja rivoyati

⁷ Mirqot ul-mafotih sharhi mishkatul masobih. Sulton ibn Muhammad Aliy al-Qori. – Bayrut: Dar al-fikr. 2010-y. 5-juz, - b.1926.

bu u zotning ribodan nihoyatda ehtiyot bo‘lganlaridan va haqdorlarga shubhalardan yiroq bo‘lishdagi ko‘satmalaridandir. Demak, berayotgan qarzidan hech qanday moddiy foydani ko‘zlamasligi, yoki uning ortidan keladigan biror manfaatga bog‘lamasligi lozim. Chunki shariat qoidasiga ko‘ra foyda keltiradigan har qanday qarz ribodir.

Alloh taolo aytadi:

“Agar (qarzdor) qiynalsa, boyigunga qadar kutish lozim. Agar bilsangiz, (bergan qarzingizni qarzdorga) sadaqa qilib yuborishingiz o‘zingiz uchun yaxshiroqdir”⁸. Ya’ni qarz beruvchi kishiga mana shunday holatlarda qarzdorni holati o‘nglangunicha va qarzini ado etish imkoniyati bo‘lgunicha muhlat berishi vojibdir va yana vaqti uzayib ketganligi sababli o‘z haqiga hech narsa qo‘shimcha qilmasligi lozimdir.⁹ Ba’zi mufassirlar ushbu o‘rinda qarzini to‘lashga qiynalgan kishiga muhlat berish va kechib yuborishga undagan hadisi shariflarni keltirdilar. Imom Muslim Abu Qatoda roziyallohu anhudan keltirib rivoyat qiladilar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim qarzdoridan (biror narsani) yengillatsa, yoki kechib yuborsa qiyomat kunida arsh soyasida bo‘ladi”, dedilar. Imom Ahmad Ibni Umar roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim duosi ijobat bo‘lishini va g‘am-g‘ussasi yozilishini xohlasa qiynalganga yengillik qilib bersin”, dedilar¹⁰. Bulardan tashqari bu borada hadisi shariflar ko‘p, biz shu ikkisi bilan kifoyalanamiz.

“Mol (va boylik)laringizni o‘rtalaringizda botil (yo‘llar) bilan yemangiz! Shuningdek, bila turib, odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo‘li bilan yeyish (o‘zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz!”¹¹

Bu oyati karimada Alloh taolo musulmonlarga bir-birlarining molini botil–harom yo‘l bilan yemoqdan qaytarmoqda. Ushbu oyati karimani tushuntirish uchun Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu: «Bu degani–bir odam qarzdor bo‘ladi, lekin o‘ziga qarshi hujjat yo‘qligidan foydalanib, u molni olganidan tonadi. Birovning molini haromdan yeb, gunohkor bo‘layotganini bilib turib, hokimga arz qiladi», degan ekanlar. Go‘yo hokim hukm qilsa, gunoh gunohlikdan tushib, harom mol halolga aylanib qoladigandek. Holbuki, hokimning hukmi ila halol harom bo‘lib qolmaydi yoki aksincha bo‘lmaydi. Balki hamma narsani ko‘rib bilib turuvchi Allohning hukmi bilan halol yoki harom bo‘ladi. hokim hamma narsani ko‘ra olmaydi, bila olmaydi. U sirdan ko‘rganiga, talashayotganlarning gapiga, ularning hujjatiga qarab hukm chiqaradi.

⁸ Baqara surasi 280-oyat

⁹ Muhammad Taqiy Usmoniy. Qozoya fiqhiyya muasira. – Damashq: Dar al-qalam. 2003. 1-juz – b.37.

¹⁰ Muhammad Sayyid Tantoviy. At tafsirul vasit. Maktaba shamila.

¹¹ Baqara surasi 188-oyat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 8-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahriri.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43 - sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.**
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, va O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni.
4. Vazirlar Mahkamasining “Birjadan tashqari valyuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2001-yil 10-iyuldagi 294-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2001-y., 7-son, 38-modda)
5. Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-dekabrdagi 995-sonli qarori tahririda – Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018-y., 09/18/995/2287-son

Ilmiy asarlar, risolalar

6. A. O‘lmasov, A. Vahobov. Iqtisod-Moliya. – Toshkent: Davlat Iqtisodiyot universiteiti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, 2014. – 524 b.
7. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: TIU, 2004. 184 b.
8. Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). I J. – Toshkent: Xalqaro islom tadqiqot markazi-Adolat, 1997. – 317 b.
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: J II. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 432 b.
10. Alouddin Kosoni. Badoe as-sanoe. 1. J. – Toshkent: Sharq, 2021. – 601 b.
11. Alouddin Kosoni. Badoeus sanoe. 2. J. – Toshkent: Sharq, 2021. – 562 b.